

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**  
**Maktabgacha ta’lim fakulteti Sifat komissiyasining**  
**“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi” kafedrasи o`qituvchisi Azamatova**  
**Dildora Shuxrat qizining 2024 yil 31-oktyabr kuni soat 10:30 da o`tkazgan**  
**amaliy dars ochiq mashg`uloti**

**X U L O S A S I**

**Fan:** “Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyasi”.

Dars Maktabgacha ta’lim fakultetining 303-xonasida 1-bosqich maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 24/3 (o`zbek), guruh talabalari bilan olib borildi.

**Dars mavzusi:** Rivojlantiruvchi markazlarda ta’limiy faoliyatlar orqali bolalarga yangi bilimlarni berishda o‘yinlar va o‘yinli texnologiyalardan foydalanish.

**Dars olib borish tizimi:** o‘zbek tilida olib borildi.

**Sifat komissiyasi raisi: D.A.Mutalova**

**Qatnashdilar:** professor-o`qituvchilar: Z.Y.Shanasirova, M.D.Tursunboyeva, N.A.Xidoyatova; magistrlar: Sh.B.Olimova, L.A.Ilesova

O‘qituvchining tarqatma materiallari, calendar rejasি, dars soati taqsimoti mavjud.

Ochiq dars o‘z vaqtida jadval bo‘yicha boshlanib, talabalarning darsga qatnashish davomati tekshirildi: 27 tadan 24 ta talaba qatnashdi. Talabalar bilan o‘tilgan mavzu yuzasidan tezkor savol-javob o`tkazildi. So‘ngra o‘tiladigan mavzu doskaga yozib qo‘yildi. Talabalar tomonidan rivojlanish markazlarida tayyorlov guruhi uchun mashg`ulot tashkil qilindi. Ta’limiy o‘yinlardan markazlarda to’g’ri foydalanish holati tahlil qilindi.

**Mashg`ulotning borish jarayoni:** Talabalarga yangi mavzu tushuntirildi talabalar tomonidan 5ta rivojlanish markazida tayyorlov guruhlari uchun o‘quv-tarbiyaviy faoliyat tashkil qilindi. Mashg`ulot davomida talabalar umumiy (frontal) va guruhlarda ishlash (markazlarda) mashg`ulotlarini tashkil etdilar. Mashg`ulot jarayonida talabalar faollik ko‘rsatdilar. Mashg`ulotni mustahkamlash uchun ta’limiy o‘yinlar va harakatli o‘yinlardan foydalanildi. Mavzu yuzasidan qo‘yilgan maqsadga erishildi.

**So‘zga chiqqanlar:** Z.Y.Shanasirova amaliy mashg`ulot talabalarni shu mavzu yuzasidan to‘liq tushunadigan darajada tashkil etilgan. Talabalar darsga faol ishtirok etdi. Talabalar bilan faol muloqot butun dars davomida olib borildi. O`tkazilgan o‘yinlar va o‘yinli texnologiyalar talabalarning mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ldi.

**Sifat komissiyasi a’zosi:** M.D.Tursunboyeva maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 24/3(o`zbek), guruh talabalariga “Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyasi” fanidan “Rivojlantiruvchi markazlarda ta’limiy faoliyatlar orqali bolalarga yangi bilimlarni berishda o‘yinlar va o‘yinli texnologiyalardan foydalanish” mavzusida o‘tilgan dars mazmuni taqvim rejasи hamda ishchi o‘quv rejasiga to‘liq mos keladi. O‘qituvchi pedagoglarga mos ravishda kiyangan, xona

va talabalar orasida o‘zini tutishi o‘rnak olishga loyiq. Pedagogik mahorati talablarga javob bera oladi. Yuqorida bildirilgan fikrlarni hisobga olgan holda, Sifat komissiyasi

**Qaror qiladi:**

- D.Sh.Azamatovaning ochiq darsi ilmiy va nazariy jihatdan yuqori saviyada o‘tdi.
- “Rivojlantiruvchi markazlarda ta’limiy faoliyatlar orqali bolalarga yangi bilimlarni berishda o‘yinlar va o‘yinli texnologiyalardan foydalanish” mavzusidagi ochiq dars \_\_\_\_\_ ball bilan ijobjiy baholansin.

**Sifat komissiyasi raisi:** \_\_\_\_\_